

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

## OMON MATJONNING BADIY TASVIR MAHORATI

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi**

Urganch davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

[abdusharifovasarvinoz@gmail.com](mailto:abdusharifovasarvinoz@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Omon Matjon qalamiga mansub she’rlarni tahlil qilar ekanmiz, she’rlar tahlili asosida uning so‘z qo‘llash mahorati, she’rlaridagi badiiy tasvirlarning o‘ziga xosligi haqida fikr yuritimiz.

**Kalit so‘zlar:** ijod, tahlil, badiiy tasvir.

Taniqli shoir, xalqimizning sevimli farzandi Omon Matjon o‘zining sodda, xalqchil she’rlari bilan she’riyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Ayniqsa, shoirning turli mavzularda yaratilgan she’rlarini tahlil qilar ekanmiz, she’rlardagi mazmun va shakl qamrovi, unda qo‘llangan original tasvir vositalari o‘quvchini bevosita o‘ziga jalb etadi. Shu qatorda shoirning ishqiy mavzuda bitilgan “Sirlarim” she’ri katta ahamiyatga molik hisoblanadi.

Shoir she’rning ilk misralaridanoq yorga bo‘lgan muhabbatini aks ettiradi. She’r bandini tahlil qilar ekanmiz, “Sevgidan roz aylagan” lirik qahramon o‘zini nayga, yorni esa mashshoqqa mengzaydi. Yor, ya’ni mashshoq nozik barmoqlarini o‘ynatib oshiq—nayning ko‘zlarini yopadi, bundan sarmast bo‘lgan nay burun ishq asrorini osmon to‘lib olamga kuylaydi, ishqini ovoza qiladi:

O‘ynashib barmoqlaring  
Bir-bir ko‘zim yopsalar,  
Sevgidan roz aylayin  
Tong qushlari uchgan mahal.  
Kuylayin osmon to‘lib,  
Kuylayin olamga man, –  
Sen agar mashshoq bo‘lib,  
Nay agar bo‘lganda man!

Bandda oshiqni nayga, ma’shuqani mashshoqqa qiyoslash orqali o‘xshatish san’ati yuzaga kelgan.

She’rning ikkinchi bandida lirik qahramon yurtining husnini madh etadi, unga ko‘ngil qo‘yib, uning qarshisida mot bo‘ladi, o‘zini uning oldida ojiz his

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

etadi. Shoir Vatanni faxr etar ekan, Vatanni tog‘ga, o‘zini soyga o‘xshatadi, ona Vatanida ungan har urug‘ga o‘zgacga mehr bilan qaraydi, uni unib-o‘shida, kamol topishida to‘lqinlanib sa‘y- harakat qiladi. Biroq unda g‘aflatda qolgan urug‘larning ko‘ksiga, ildiziga shoir toshqin soladi, ularni tag-tugi bilan qo‘porib tashlaydi:

Ona yurtim husniga  
Mot bo‘lib, ko‘ngil qo‘yib,  
Har urug‘ning ko‘ksiga  
Mavj iyib, g‘ulu iyib,  
Bo‘lsa kim g‘aflat panoh,  
Toshqin solardim unga man,—  
Sen agar bo‘lganda tog‘,  
Soy agar bo‘lganda man!

Uchinchi bandga nazar solar ekanmiz, shoirning yuksak did va mahorat bilan yozilgan misralariga duch kelamiz. Satrlarda ifodalanishicha, tong saharlab uyg‘ongan quyoshdan taralayotgan shu‘la tunda barglarga tushgan shabnamdan tuyg‘ular izlaydi, ya‘ni bu yerda shoir tonggi quyosh nurlarining shabnamga singib ketib, unda aks etishini, unda jilolanishi jonlantirirish san‘ati vositasida poetic figura orqali tasvirlagan. Ushbu bandning keyingi misralarida shoir o‘zini yoyga monand qiyos etadi. Shoir hissiz kishi ko‘rganda “O‘q tiqay qalbin o‘yib” deya hissiz, yuragi yo‘q kishilardan cheksiz nafratlanishini, bunday tirik “qalbli” kishilarning yuragiga o‘q sanchgan bilan sanchmagan teng ekanligini, shunday ekan shoir bu ishda o‘zini gunohkor sanamasligini ifoda etadi:

Tongda quyoshning shu‘lasi  
Shabnamdin izlar tuyg‘ular.  
Tog‘da ohular galasi,  
Dilda sehrlil chalg‘ular...  
O‘q tiqay qalbin o‘yib,  
Hissiz kishi ko‘rganda man,—  
Sen agar sayyod bo‘lib,  
Yoy agar bo‘lganda man!

Keyingi bandda shoir “Oyki ming yildan buyoq yerdan yiroq ketmas, nechun?” degan falsafiy savolni o‘rta qo‘yadi hamda o‘zini oyga o‘xshatadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Misrada shoir oy yerning atrofida aylanganidek o‘z baxtiga yetmaguncha ming jangga kirar ekanligini ta’kidlaydi.

She’rning oxirgi bandida shoir o‘zini mayga o‘xshatadi, ”Eng muqim tinchlik uchun, eng go‘zal sevgi uchun, eng asil do‘stlik uchun, eng nafis sezgi uchun yog‘du bo‘lardim lolarang” deya shoir tasavvufga ishora qiladi. BANDA qo‘llangan qadah, may, soqiyi zamon kabi tasavvufiy timsollar she’r mazmunini ochib beruvchi yetakchi vositalar hisoblanadi.

Shoirning “Ming bir yog‘du” she’r va dostonlar to‘plamiga kiritilgan “Vavilon qal’asining xarob bo‘lishi” deb nomlangan she’rini tahlil qilar ekanmiz. Shoir tilidan:”Vavilon, ya’ni Bobil qal’asi qadimda Iroq mamlakatida joylashgan bo‘lib, Nuh to‘fonidan keyin vayron holga tushib qolgan, deyishadi”, — der ekan, fikrini davom ettiradi, aslida uch devor bilan o‘ralgan bu ulug‘ va mustahkam shahar aslida to‘fon sababli nuramagan, balki o‘z elining, xalqining unga be’etiborligi, suv qarovchi shaxslarning xatolari tufayli nurab, yo‘q bo‘lganligini achchiq alam bilan tilga oladi. Shoir tillarda doston bo‘lgan bu azim shahar tarixini eslar ekan, bu shahar tabiiy ofatlar: zilzila, bo‘ronlar sababli yoki yov bosqini sabab xarob bo‘lgan emas, aksincha odamlarning befarqligi, ularning xatolari tufayli xarob bo‘lganligidan dildan afsuslanadi:

Endi ma’lum bo‘ldi – buyuk Vavilon

Qanday xarob bo‘lgan,

Nima sababdan?!

Unga harb etganmas zilzila, bo‘ron,

Yov bosib kelganmas biron tarafdin.

Endi ma’lum bo‘ldi: shundoq davlatni

Pongvosh miroblari yo‘q etgan xo‘rlab.

Shoir vayron bo‘lgan Bobil shahrini she’rda keltirar ekan, bu yurtning go‘zal bog‘larini ta’riflar ekan, bu bog‘larning xil-xil mevalarining nomlarini hatto bog‘boni bilmasligidan, karvonlarining tizgini sarbonsiz ekanligidan afsus chekadi. Shu jumladan, Vavilon qal’asining yemirilishida miroblarning aybdorligini tilga olar ekan, Azim Xorazmning poytaxti – Xivaning ikki buyuk mirobi Farg‘oniy, Ogahiy kabi buyuk miroblarni faxr etib, ularning “tayog‘in chizig‘i – abadiy daryo” deb, ularning jilovlab bo‘lmas Amudaryoning tizginini qo‘lga olib, el-yurt obodligi uchun qilgan mashaqqatlarini eslaydi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

She'ni tahlil qilar ekanmiz, she'rd a alohida band sifatida berilgan satrlarda shoirning o'y-fikrlari bayon etiladi:

Bog'larim – Vavilon,  
Gulim – Vavilon,  
Qo'shig'im – Vavilon, Sherim – Vavilon.  
Olis Vavilonni o'ylasam shundoq,  
Bir sirkash sezar ko'ksim – vijdonim...  
Senga kelayotgan daryolar pokmi,  
Qalaysan, yuragim – O'zbekistonim?!

Shoir ushbu misralarni kulminatsiya darajasiga ko'taradi, ya'ni bandda Omon Matjon bog'larini, bog'larida o'sgan gullarini, aytgan va aytilmagan qo'shiqlarini, yozilib, tillarda doston bo'la turib, tanqidga uchragan she'rlarini – Vavilonga mengzaydi, ular ham odamlarning tushunmasliklaridan, ularning bergan ozor, tazyiqlaridan nuraydi shoir nazdida. Ijodkor Vavilonning qismatiga achinar ekan, uning ong-u shuurini bir savol egallaydi. “Senga kelayotgan daryolar pokmi, qalaysan, yuragim – O'zbekistonim?!” deya shoir ona Vatan holini so'raydi, shoirning “yuragi” bo'lgan bu diyorning koriga uning farzandlari yarab, uning nuramasdan yuksalishiga imkon yaratayotganmikan degan savollar shoirning ko'nglidan o'tadi.

Omon Matjon qaysi mavzu yoinki qaysi janrda qalam tebratmasin, shoir ularning barchasida o'ziga xos yangliklar yaratadi, shoirning tasvir mahorati shundan iboratki, u o'z ijodi bilan inson qalbining tub-tubida yashirinib yotgan, mudrab yotgan tuyg'ularini uyg'otadi, insonni chinakamiga ruhiy olamini tarbiyalaydi, kamol toptiradi. U har bir ijod namunasida hech kimnikiga o'xshamas tasvirlardan foydalanadi, shu sababli biz uni novator shoir, desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omon Matjon “Yonayotgan daraxt”.-T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
2. Omon Matjon “Ming bir yog'du”.-Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.